

Jumanova Rayxona Shuxratjon qizi

Samarqand davlat chet tillari instituti

***Ingliz tili fakulteti Maktabgacha va boshlang’ich ta’limda xorijiy til
ingliz tili yo`nalishi 2-bosqich talabasi.***

Ilmiy raxbar: Zubaydova Nilufar Negmatullayevna

Annotatsiya: Ushbu maqolada kichik yoshdagi bolalarning tinglab tushunish ko‘nikmalarini shakllantirishda shadowing metodining ahamiyati o‘rganiladi. Shadowing, ya’ni biror matnni tinglab, uni takrorlash jarayoni, bolalarning eshitish, tushunish va ifodalash qobiliyatlarini rivojlantirishda muhim rol o‘ynaydi.

Kalit so‘zlar: shadowing, tinglab tushunish ko‘nikmalar, til o‘rganish jarayoni, kichik yoshdagi bolalar, ta’lim, eshitish ko‘nikmalar.

Kirish

Kichik yoshdagi bolalar uchun til o‘rganish jarayoni ularning kognitiv va kommunikativ rivojlanishida muhim ahamiyatga ega. Ushbu jarayonda tinglab tushunish ko‘nikmalar o‘rganilayotgan tilning asosiy elementlaridan biri hisoblanadi. Shadowing metodi, ya’ni biror nutq yoki matnni eshitib, uni bir vaqtning o‘zida takrorlash, bolalarning eshitish va tushunish qobiliyatlarini shakllantirishda samarali vosita sifatida qo‘llaniladi. Bu usul bolalarning tilni tezroq o‘zlashtirishiga yordam beradi, chunki u eshitilgan materialni ko‘rish va tinglash orqali mustahkamlaydi.

Asosiy Qism

1. Shadowing Metodi va uning asosiy tamoyillari

Shadowing — bu nutqni tinglab, uni bir vaqtda takrorlash jarayoni. Bu metodning asosiy tamoyillari quyidagilar: Ijtimoiy interaksiya: Bolalar bu jarayonda bir-biri bilan muloqotda bo‘lib, tilni o‘rganish jarayonini yanada

qiziqarli va samarali qilishadi. Repetitsiya: Nutqni takrorlash orqali bolalar til qoidalarini va so‘z boyligini yaxshilaydilar^[1].

Kontekstual o‘rganish: Bolalar matnni kontekstdan o‘rganadilar, bu esa tushunishni osonlashtiradi. Ya’ni har bir o‘raganilayotgan ma’lumotlarda konteks bo`ladi.

2. Kichik yoshdagi bolalar uchun Shadowingning ahamiyati.

Kichik yoshdagi bolalar uchun shadowing bir necha jihatdan foydali:

Eshitish ko‘nikmalarini rivojlantirish: Bolalar o‘z vaqtida turli aksent va talaffuzlarni eshitish orqali eshitish qobiliyatlarini kengaytiradilar. Bunda asosan youtube, telegram va boshqa saytlardan videolar yoki audiolar tanlanadi.

Tushunish qobiliyatini oshirish: Ushbu usul bolalarning matnni tushunish qobiliyatini kuchaytiradi, chunki ular eshitgan narsalarini tezda takrorlashadi^[2].

Kompleks ko‘nikmalarni shakllantirish: Shadowing bolalarga nafaqat tilni o‘rganishda, balki muloqotda o‘zlarini ifoda etishda ham yordam beradi^[3].

3. Shadowing Metodini Qo‘llash Usullari

O‘yinlar va faoliyatlar: Bolalar uchun interaktiv o‘yinlar yordamida shadowing jarayonini qiziqarli va samarali qilish mumkin. Masalan, "Tingla va Takrorla" o‘yini, unda bolalar eshitgan matnni takrorlashlari kerak, ularning tinglash va tushunish ko‘nikmalarini oshiradi. Masalan: audioda (the king of animals is Lion) deyilgan bo`lsa bolalar avval audioni eshtadilar, keyin esa shu soz`ni takrorlash orqali so`larni tez va xatosiz o‘rganadilar.

"Sozlar Yodlash" o‘yini: Bolalar bir-biriga so‘zlarni aytib, ularni takrorlashlari kerak. Bu jarayon orqali ular yangi so‘zlarni tezroq o‘rganadilar. Audio va video materiallardan foydalanish mumkin. Matnlarni turli manbalardan tinglab, bolalar o‘zlarini qiziqtirgan materiallar bilan ishlashadi. Masalan, bolalarga multfilmlar yoki audiokitablar orqali matnlarni tinglatish va ularni takrorlash ularga motivatsiya beradi

¹

²

³

2.O‘yinli Dialoglar (Role-Playing Dialogues) Tavsif: Bolalarga kichik sahnalar beriladi, masalan, do‘konda suhbat yoki uyda oila a’zolari bilan suhbat qilish. O‘qituvchi yoki do‘stlarining gaplarini eshitib, bolalar dialog shaklida so‘zlashadi. Maqsad: Bolalarmi real hayotda tilni ishlatalishga o‘rgatish va ular bilan jonli muloqotda qatnashish uchun tayyorlash.

3. Ertakni Eshit va Aytib Ber (Story Shadowing) Tavsif: Bolalar qisqa ertak yoki hikoyani eshitadilar va o‘qituvchi yoki do‘stlari aytgan gaplarni takrorlashadi. Hikoya eshitib tugaganidan so‘ng, bolalar uni o‘z so‘zlari bilan qayta hikoya qilishga urinadilar. Maqsad: Eshitilgan ma’lumotni eslab qolish va uni boshqa formatda qayta ifodalash ko‘nikmasini oshirish..

Guruxlar bilan ishlash: Bolalar o‘rtasida guruuhlar tashkil etib, shadowing jarayonini birgalikda amalga oshirish, ularning ko‘nikmalarini oshiradi. Najida ular jamoa bilan ishlashni, xató qilishdan qo‘rmaslikni o‘rganadilar.

Xulosa

Kichik yoshdagi bolalarning tinglab tushunish ko‘nikmalarini shakllantirishda shadowing metodining ahamiyati yuqori. Bu metod bolalar uchun til o‘rganish jarayonini yanada samarali va qiziqarli qiladi. Eshitish ko‘nikmalarini rivojlantirish va nutqni tushunish qobiliyatini oshirishda shadowing usuli keng ko‘lamli imkoniyatlar yaratadi. Kelajakda bolalarmi til o‘rganishga qiziqtirish va ularning ko‘nikmalarini rivojlantirish uchun ushbu metodni pedagogik jarayonlarga qo‘shish va qo’llash juda muhimdir.

Foydalanilgan Adabiyotlar:

1. Nunan, D. (1991). Language Teaching Methodology. Oxford University Press.
2. Thornbury, S. (2006). An A-Z of ELT. Macmillan Education.
3. Nation, P. (2001). Learning Vocabulary in Another Language. Cambridge University Press.
4. Goh, C. C. M. (2000). A Cognitive Approach to Language Learning: Listening Strategies. In Teaching English as a Second Language: An Overview.
5. Swain, M. (2000). The Output Hypothesis and Beyond: Mediating Acquisition Through Collaborative Dialogue. In P. L. E. T. B. P. (Eds.), Sociocultural Theory and Second Language Learning.

6. Pulatova F. A. Technologies for teaching students to think critically //International Academic Research Journal Impact Factor. – 2023. – T. 7. – C. 56-61.
7. Pulatova F. A. Interactive education and its didactic opportunities //ACADEMICIA: An International Multidisciplinary Research Journal. – 2021. – T. 11. – №. 11. – C. 204-206.
8. Karimova, N. M., Yuldasheva, S. T., Pulatova, F. A., & Shodiyeva, S. R. (2023). Pedagogical Conditions for Students to use Critical Thinking in the Development of Interethnic Communication. Journal of Survey in Fisheries Sciences, 10(2S), 4211-4219.
9. Pulatova, F. (2024, May). PSYCHOLOGY OF THINKING AND THE PSYCHOLOGICAL ESSENCE OF CRITICAL THINKING. In Conference Proceedings: Fostering Your Research Spirit (pp. 76-77).